

FOYDALANUVCHI
QO'LLANMASI

KIR YUVISH MASHINASI



O'rnatishni boshlashdan oldin quyidagi yo'l-yo'riqlarni diqqat bilan o'qib chiqing. Shunda o'rnatish oson bo'ladi va jihoz to'g'ri va xavfsiz o'rnatilishi kafolatlanadi. O'rnatib bo'lgandan so'ng bu yo'l-yo'riqlarni ma'lumot sifatida jihoz yaqinida qoldiring.

UZ UZBEKISTAN

F2J7HG(P)(0~9)W/S



MFL70740935
Rev.00_062318

www.lg.com

Copyright © 2018 LG Electronics Inc. All Rights Reserved.

Ushbu qo'llanmada siz xarid qilgan rusumga taalluqli bo'lmagan tasvirlar yoki tarkib bo'lishi mumkin.

Ushbu qo'llanma ishlab chiqaruvchi tomonidan qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

XAVFSIZLIK KO'RSATMALARI	3
Muhim xavfsizlik ko'rsatmalari	3
Eski jihozni chiqitga chiqarish	8
O'RNATISH	9
Qismlar	9
Anjomlar	9
Texnik xususiyatlari	10
O'rnatiladigan joyga qo'yiladigan talablar	11
Qadoqdan chiqarish va tashish boltlarini yechish	12
Siljib ketishga qarshi tagliklardan foydalanish (ixtiyoriy)	13
Yog'och pol (o'rnatma pol)	13
Jihozni tekis joylashtirish	14
Suv kirish shlangini ulash	14
Drenaj shlangini o'rnatish	17
ISHLATISH	18
Kir yuvish mashinasini ishlatish	18
Kirlarni saralash	19
Tozalash vositalarini qo'shish	20
Boshqaruv paneli	22
Dasturlar jadvali	23
Ixtiyoriy dastur	28
Сушка(Quritish) (🌀)	29
AQLLI FUNKSIYALAR	32
LG SmartThinQ ilovasidan foydalanish	32
Smart Diagnosis™ (Aqlii tashxis) funksiyasini ishlatish	35
TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH	36
Kir yuvish mashinasini tozalash	36
Suv kirish filtrini tozalash	36
Drenaj nasosi filtrini tozalash	37
Kir yuvish vositalari tortmasini tozalash	38
Очистка барабана (Barabanni tozalash) (🌀) (ixtiyoriy)	38
Qishda muzlashdan saqlash	39
NOSOZLIKLARNI BARTARAF ETISH	41
Muammolarga tashxis qo'yish	41
Xato haqidagi xabarlar	44
KAFOLAT	46
JIHOZ ISHLASHI HAQIDA MA'LUMOT	49

Quyidagi xavfsizlik ko'rsatmalari kutilmagan xavflar hamda jihozdan ehtiyotsizlik bilan yoki noto'g'ri foydalanish oqibatida kelib chiqadigan zararlarning oldini olishga mo'ljallangan. Ushbu ko'rsatmalar quyida ko'rsatilganidek “OGOHLANTIRISH” va “DIQQAT” belgilari bilan qismlarga ajratilgan.

 Ushbu belgi xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan holat va amallarni bildiradi. Mazkur belgi bilan ajratilgan qismni ehtiyotkorlik bilan o'qing va xavfning oldini olish uchun ko'rsatmalarga amal qiling.

OGOHLANTIRISH

Bu belgi ko'rsatmalarga amal qilmaslik jiddiy jarohat yoki o'limga sabab bo'lishi mumkinligini bildiradi.

DIQQAT

Bu belgi ko'rsatmalarga amal qilmaslik yengil jarohat yoki mahsulotga zarar yetishiga sabab bo'lishi mumkinligini bildiradi.

Muhim xavfsizlik ko'rsatmalari

OGOHLANTIRISH

Mahsulotdan foydalanish asnosida portlash, yong'in chiqish, o'lim, elektr zarbasi yoki jarohatning oldini olish uchun asosiy ehtiyotkorlik choralariga amal qiling:

Uydagi bolalar

Ushbu jihoz jismoniy, sezgi yoki aqliy qobiliyati cheklangan, foydalanish tajribasi va bilimi kam shaxslar (jumladan, bolalar) tomonidan foydalanish uchun mo'ljallanmagan. Agar ularning xavfsizligi uchun javobgar biror shaxs jihozdan foydalanishda ularni nazorat qilib tursa yoki ko'rsatma berib tursa, bunday shaxslar jihozdan foydalanishlari mumkin. Bolalarni jihoz yonida nazoratsiz qoldirmang.

O'rnatish

- Agar jihoz shikastlangan, noto'g'ri ishlayotgan, qismlarga ajratilgan yoki qismlari yetishmayotgan yoki singan, jumladan, shnur yoki vilkasi shikastlangan bo'lsa, uni ishlatmang.
- Bu jihozni ikki yoki undan ortiq kishi mahkam ushlagan holda joyidan ko'chirishi lozim.
- Jihozni nam va changli joyga o'rnatmang. Jihozni tashqariga yoki to'g'ridan-to'g'ri quyosh nuri, shamol yoki yomg'ir tegadigan, harorat muzlashgacha boradigan joylarga o'rnatmang yoki saqlamang.
- Ajralib ketmasligi uchun drenaj shlangini mahkamlab qo'ying.
- Agar elektr shnuri shikastlangan yoki rozetkaning teshigi bo'shab qolgan bo'lsa, shnurni ishlatmang hamda vakolatli xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qiling.
- Bu jihozni ko'p o'rinli rozetka, uzaytirgich kabel yoki adapter yordamida ulamang.
- Bu jihoz qulflanadigan eshik, suriluvchi eshik yoki qarama-qarshi qulfi bor eshik orqasiga o'rnatiladigan bo'lsa, jihoz eshigining to'liq ochilishiga xalaqit bermaydigan tarzda bo'lishi kerak.
- Bu jihozni yerga ulash shart. Agar jihoz noto'g'ri ishlasa yoki buzilib qolsa, elektr tokini eng kam qarshilik ko'rsatadigan tomonga yo'naltirib yuborish orqali tok urishining oldi olinadi.
- Bu jihozning elektr shnuri uskunani yerga ulash simi va vilkasi bilan jihozlangan. Barcha mahalliy qonun-qoidalarga muvofiq tarzda o'rnatilgan va yerga ulangan rozetkadan foydalanish shart.
- Uskuna yerga ulash simi noto'g'ri ulansa, tok urishi xavfi yuzaga keladi. Jihoz yerga to'g'ri ulanganligiga amin bo'lmasangiz, malakali elektrik yoki xizmat ko'rsatish xodimiga murojaat qiling.
- Jihoz bilan birga yetkazib berilgan vilkani o'zgartirmang. Agar u rozetkaga to'g'ri kelmasa, malakali texnik tomonidan tegishli rozetka o'rnatilishi kerak.

Ishlatish

- Hech qaysi panelni ajratish yoki jihozni qismlarga ajratishga urinmang. Jihozni ishlatish uchun boshqaruv paneliga o'tkir buyumlarni tekkizmang.
- Jihozning hech qaysi qismini ta'mirlamang yoki almashtirmang. Ushbu Foydalanuvchi qo'llanmasida boshqacha tavsiya etilgan hollardan tashqari barcha ta'mirlash va xizmat ko'rsatish ishlari malakali xizmat ko'rsatish xodimlari tomonidan amalga oshirilishi kerak. Faqat zavoddan chiqarilgan ehtiyot qismlarni ishlateng.
- Jihoz ichiga uy hayvonlari yoki boshqa jonzoatlarni solmang.
- Jihoz tagi va atrofi iplar, qog'oz, latta-putta, kimyoviy moddalar va shu kabi yonuvchi materiallardan xoli tutilsin.
- Jihoz eshigini ochiq qoldirmang. Bolalar eshikka osilishi yoki jihoz ichiga kirishi mumkin, natijada jihozga shikast yetkazishi yoki jarohat olishi mumkin.
- Yangi shlang yoki jihoz bilan birga taqdim qilingan shlanglar to'plamini ishlateng. Eski shlanglar ishlatilsa, suv sizib chiqishi va natijada mulkka zarar yetishi mumkin.
- Yonuvchan yoki portlovchi moddalar (masalan, mum, mumni tozalagich, moy, bo'yoq, benzin, yog'ni yo'qotuvchi modda, kimyoviy tozalash eritmalari, kerosin, yoqilg'i, dog'ni ketkazgich, skipidar, sabzavot yog'i, iste'mol yog'i, atseton, sport va hokazolar) bilan tozalangan, yuvilgan, ivitilgan yoki dog' tushgan matolarni solmang, yuvmang yoki quritmang. Noto'g'ri foydalanish oqibatida yong'in yoki portlash sodir bo'lishi mumkin.
- Jihoz ishlab turganida uning ichki qismlariga tegmang. Baraban butunlay to'xtashini kuting.
- Suv toshib ketsa, tokdan sug'uring va LG Electronics mijozlarni qo'llab-quvvatlash markaziga murojaat qiling.
- Jihoz eshigi ochiq turganida uni qattiq pastga bosmang.
- Yuqori haroratli dastur paytida eshikka tegmang.
- Jihoz yaqinida (benzol, benzin, suyultirgich, neft, spirt va h.k. kabi) yonuvchan gaz va yonadigan moddalarni ishlatmang.

- Kir yuvish vositalari, yumshatgich va oqartirgichlarni bolalardan uzoqda tuting.
- Agar drenaj shlangi yoki kirish shlangi qishda muzlab qolsa, ishlatishdan oldin eriting.
- Ho'l qo'lingiz bilan elektr vilkasiga yoki jihozning tugmalariga tegmang.
- Elektr kabelini haddan ortiq bukmang yoki ustiga og'ir buyum qo'ymang.
- Bu mashinada kiyim va matolardan boshqa narsalar, gilamcha, bo'yra, oyoq kiyim yoki uy hayvonlari qoplamalarini yuvmang.
- Bu jihozdan faqat uy sharoitida foydalanish lozim, ko'chma sharoitda foydalanish mumkin emas.
- Agar gaz (izobutan, propan, tabiiy gaz va h.k) sizib chiqayotgan bo'lsa, jihozga yoki elektr vilkasiga tegmang hamda darhol xonani shamollating.

Quritgichdan foydalanish bo'yicha texnik xavfsizlik qoidalari

- Moslama ichida yuvilmagan narsalarni quritmang.
- O'simlik yog'i, atseton, spirt, benzin, kerosin, dog'larni ketkazgich, skipidar, mum va mum tozalagichlar kabi moddalar bilan ifloslangan kirlarni issiq suvda sal ko'proq yuvish vositasini qo'shgan holda yuvib tashlagandan so'ng moslamada quritish mumkin.
- Quritish sikli tugamasdan avval moslamani hech qachon to'xtatmang. Issiqlik tez tarqalishi uchun barcha buyumlarni tez olib tashlash imkoni bo'lgan holatlar, bundan mustasno.
- Rezinali gubka (lateksli rezina), dush qalpoqlari, suv o'tkazmas matolar, rezinali qismlarga ega narsalar yoki kiyimlar va yostiqchalar, rezinali tagliklarni moslamada quritmang.
- Mato yumshatgichlari yoki shu kabi mahsulotlarni ana shu mahsulot yo'riqnomalarida ko'rsatilgandek ishlatilishi lozim.
- Cho'ntaklardan chaqmoq va gugurtlar kabi narsalarni olib tashlang.

- Agar yuvish vaqtida sanoatda qo'llaniladigan kimyoviy vositalardan foydalanilgan bo'lsa, bunday buyumlarni quritish uchun mashinadan foydalangan bo'lsa, moslamadan foydalanish mumkin emas.

Texnik xizmat ko'rsatish

- Namlik yoki changni yaxshilab tozalab tashlagandan so'nggina elektr vilkasini rozetkaga ulang.
- Jihozni tozalashdan oldin uni elektr ta'minotidan uzib qo'ying. Tugmalarni O'CHIQ yoki kutish rejimiga o'tkazish orqali jihoz elektr ta'minotidan uzilmaydi.
- Jihozni tozalash uchun uning ichiga yoki sirtiga suv sepmang.
- Jihozni tokdan uzishda elektr kabelidan tortmang. Doim vilkani mahkam ushlang va rozetkadan to'g'ri yo'nalishda tortib chiqaring.

Chiqitga chiqarish


- Eski jihozni chiqitga chiqarishdan oldin uni tokdan uzing. Har ehtimolga qarshi jihoz orqasidan kabelni qirqib tashlang.
- Qadoq materiallari (plastik paketlar va penoplast)ni bolalardan uzoqroqda chiqitga chiqaring. Qadoq materiallari bo'g'ilib qolishga sabab bo'lishi mumkin.
- Bolalar yoki mayda jonivorlar ichiga qamalib qolmasligi uchun jihozni chiqitga chiqarishdan oldin eshigini olib tashlang.

Eski jihozni chiqitga chiqarish




- Bu ustidan chizilgan g'ildirakli savat shuni bildiradiki, chiqindiga chiqarilgan elektr va elektron mahsulotlar (WEEE) maishiy chiqindi tizimidan alohida chiqitga chiqarilishi kerak.
- Eski elektr mahsulotlarda zararli moddalar bo'lishi mumkin, shu sababli uni tegishli tarzda chiqitga chiqarish orqali atrof-muhit va insonlar salomatligiga ehtimoliy salbiy ta'sirining oldi olinadi. Cheklangan resurslarni tejash maqsadida eski jihozning qismlarini boshqa mahsulotlarni ta'mirlashda ishlatish, shuningdek, undagi boshqa qimmatli materiallarni qayta ishlash mumkin.
- Jihozni sotib olgan do'konga olib borishingiz yoki yaqinroqda joylashgan vakolatli WEEE to'plash nuqtasi haqida bilish uchun mahalliy chiqindi idorasiga murojaat qilishingiz mumkin. Mamlakatingizga oid eng yangi ma'lumotlar uchun bu veb sahifani ko'ring: www.lg.com/global/recycling.

Qismlar



- 1** Tashish boltlari
- 2** Elektr vilkasi
- 3** Tortma
- 4** Boshqaruv paneli
- 5** Baraban
- 6** Eshik
- 7** Drenaj shlangi
- 8** Drenaj tiqini
- 9** Drenaj nasosi filtri
- 10** Qopqoq (rusumga qarab o'zni farqlanishi mumkin)
- 11** Rostlanadigan oyoqchalar

Anjomlar



Sovuq suv uzatuvchi shlang (1 ta) (Ixtiyoriy: issiq suv shlangi (1 ta))




Gayka klyuchi



Tashish boltlari teshigini yopuvchi tiqinlar (ixtiyoriy)



Siljib ketishga qarshi tagliklar (2 ta) (ixtiyoriy)



Drenaj shlangini mahkamlash uchun halqasimon qisqich (ixtiyoriy)



Bog'lash tasmasi (ixtiyoriy)


Texnik xususiyatlari

Rusum	F2J7HG(P)(0~9)W/S
Yuvish sig'imi	7 kg (yuvish) / 4 kg (quritish)
Elektr ta'minoti	220 - 240 V~, 50 Gs
O'lchami	600 mm (E) x 450 mm (Ch) x 850 mm (B)
Mahsulot vazni	62 kg
Ruxsat berilgan suv bosimi	0,1 - 1,0 MPa (1,0 - 10,0 kgk / sm ²)

- Mahsulot sifatini oshirish maqsadida tashqi ko'rinishi va texnik xususiyatlari bildiruvsiz o'zgartirilishi mumkin.
- Suv ta'minotiga ulash uchun qarama-qarshi tomonga oqishdan himoya kerak emas.

O'rnatiladigan joyga qo'yiladigan talablar

Joy



Tekis pol: Butun jihoz tagidagi maksimal nishablik – 1°.

Rozetka: Jihoz joylashgan yerdan ko'pi bilan 1,0 metr uzoqlikda bo'lishi zarur.

- Rozetkaga bittadan ortiq jihozni ulamang.

Qo'shimcha oraliq: Devor, 10 sm: orqadan/2 sm: o'ng va chapdan

- Hech qachon jihoz ustiga kirlarni qo'ymang. Sirti yoki tugmalariga shikast yetishi mumkin.

⚠ OGOHLANTIRISH

- Barcha mahalliy qonun-qoidalariga muvofiq tarzda o'rnatilgan va yerga ulangan rozetkadan foydalanish shart.

Joylashtirish

- Jihozni tekis, qattiq polga o'rnatang.
- Jihoz atrofidagi havo aylanishini gilam, palos va hokazolar to'sib qo'ymasiz.
- Polning notekisligini to'g'irlash uchun jihoz tagiga yog'och, karton yoki shunga o'xshagan narsalar qo'ymang.

- Jihozni gaz plitasi yoki ko'mirli pechdan uzoqroqqa o'rnatish imkonini bo'lmasa, plita yoki pech tomonga alyumin folga bilan o'ralgan izolyatsiya (85x60 sm) qo'yilishi kerak.
- Jihozni harorat muzlashgacha boradigan xonalarga o'rnatmang. Muzlagan shlanglar bosim ostida yorilib ketishi mumkin. Muzlash nuqtasidan past haroratda elektron boshqaruv bloki noto'g'ri ishlashi mumkin.
- Jihozni o'rnatayotganda, buzilib qolgan holatda mutaxassisga tuzatish oson bo'lishi kerakligini hisobga oling.
- Jihozni o'rnatgandan so'ng barqaror turishi uchun tashish boltining klyuchi yordamida to'rtta oyoqchasini rostlang. Jihoz usti bilan taglik pastki tomoni orasida kamida 5 mm oraliq joy qoldirilishi lozim.
- Agar jihoz qishda yetkazib berilsa va harorat muzlash nuqtasidan past bo'lsa, jihozni ishlatishdan oldin xona haroratida bir necha soat saqlang.

⚠ OGOHLANTIRISH

- Ushbu qurilma dengiz transportlari yoki harakatlanuvchi mashina, furgonlar, samolyotlar va hokazolarda foydalanish uchun mo'ljallanmagan.


Elektr tarmog'iga ulash

- Uzaytirgich shnuri yoki troynik ishlatmang.
- Jihozni ishlatib bo'lgandan so'ng doim elektr tarmog'idan uzib qo'ying va suv jo'mragini yoping.
- Jihozni amaldagi ulash qoidalariga muvofiq ravishda yerga ulangan rozetkaga ulang.
- Jihozni shunday joylashtiringki, vilkaga yetish oson bo'lsin.
- Jihozni ta'mirlash faqat malakali texnik tomonidan amalga oshirilishi kerak. Tajribasiz shaxslar ta'mirlash bilan shug'ullanishi oqibatida jarohat yetishi yoki jiddiy nosozlik bo'lishi mumkin. Mahalliy xizmat ko'rsatish markazi bilan bog'laning.

Qadoqdan chiqarish va tashish boltlarini yechish


1 Jihozni po'kakli asosdan ajratib oling.

- Karton hamda tashish materialini olib tashlagandan so'ng uni po'kakli asosdan ajratib oling. Baraban tayanchi karton taglik bilan birga ajratilishiga ishonch hosil qiling, jihozning tagiga ilinib qolmasin.
- Agar karton taglikni olib tashlash uchun jihozni yotqizish kerak bo'lsa, yon tomonini himoyalab, ehtiyotkorlik bilan yotqizing. Jihozni oldi yoki orqa tomoniga yotqizmang.




2 Boltlarni bo'shatib chiqaring.

- Ikki tashish boltidan boshlab, jihoz bilan taqdim qilingan klyuch yordamida barcha tashish boltlarini soat millariga teskari yo'nalishda burash orqali bo'shatib. Boltlarni o'ziga silkitib chiqarib oling.



3 Teshik tiqinlarini o'rnatish.

- Anjomlar to'plamida yoki orqa tomonga mahkamlangan teshik tiqinlarini toping.




Izoh

- Boltlarni kelgusida ishlatish uchun saqlab qo'ying. Ichki qismlariga zarar yetmasligi uchun yuvish mashinasini tashishda tashish boltlarini joyiga qayta o'rnatish.
- Tashish boltlari va halqasimon qisqich olib tashlanmasa, jiddiy tebranish va shovqin hosil bo'lib, yuvish mashinasiga tuzalmas shikast yetishi mumkin. Tashish boltlari olinmasdan turib jihozni ishlatishning oldini olish uchun shnur mashinaning orqasiga tashish boltlari bilan mahkamlangan.

Siljib ketishga qarshi tagliklardan foydalanish (ixtiyoriy)

Agar jihozni silliq yuzaga o'rnatasangiz, tebranish tufayli joyidan siljishi mumkin. Tekis o'rnatilmagan bo'lsa, shovqin va tebranish tufayli noto'g'ri ishlashi mumkin. Bu holda sozlanadigan oyoqlari ostiga siljib ketishga qarshi tagliklarni qo'ying, keyin oyoqchalarni rostlang.

- 1 Siljib ketishga qarshi tagliklarni o'rnatish uchun polni tozalang.
 - Yot jismlar va namlikni olib tashlash va tozalash uchun quruq mato ishlateng. Namlik qolib ketsa, tagliklar siljib ketishi mumkin.
- 2 Jihozni o'rnatiladigan joyga joylashtirgandan so'ng tekis turishini ta'minlang.
- 3 Siljib ketishga qarshi tagliklarning yopishqoq tomonini polga qaratib soling.
 - Old oyoqchalarning tagiga sirpanishga qarshi to'shamalar solish eng samarali usuldir. Old oyoqchalar tagiga taglik qo'yish qiyin, ularni orqa oyoqcha tagiga qo'ying.




- 4 Jihoz tekis o'rnatilganligiga ishonch hosil qiling.
 - Jihoz chayqalmasligiga ishonch hosil qilish uchun uni ohista itarib yoki chayqatib ko'ring. Agar jihoz chayqalsa, uning sathini qaytadan tekislang.

Izoh

- Siljib ketishga qarshi tagliklarni LG xizmat ko'rsatish markazidan olishingiz mumkin.

Yog'och pol (o'rnatma pol)

- Yog'och pollar ayniqsa tebranishga moyil bo'ladi.
- Tebranishning oldini olish uchun kamida 15 mm qalinlikdagi rezina halqalarni jihozning har bir oyog'iga qo'yib, kamida ikkita pol to'siniga burama mix bilan qotiring.



- Iloji bo'lsa jihozni xona burchagiga o'rnateng, u yerda pol baquvvat bo'ladi.
- Tebranishni kamaytirish uchun rezina halqalarni kiydiring.


Izoh

- Kir yuvish mashinasi to'g'ri joylashtirilsa va tekis tursa, uzoq vaqt davomida, muntazam va ishonchli ishlashi ta'minlanadi.
- Kir yuvish mashinasi 100% gorizontal bo'lishi va joyida barqaror turishi lozim.
- Yuklanganida chayqalishi kerak emas.
- O'rnatiladigan yuza toza bo'lishi, mastika yoki boshqa surtmalardan holi bo'lishi kerak.
- Kir yuvish mashinasining oyoqlari ho'l bo'lmasin. Aks holda tebranish yoki shovqin hosil bo'lishi mumkin.
- Rezina halqalarni (qism raq.4620ER4002B) LG xizmat ko'rsatish markazidan olishingiz mumkin.

Jihozni tekis joylashtirish

Agar pol tekis bo'lmasa, rostlanadigan oyoqchalarni keraklacha burang (oyoqchalar tagiga taxta yoki boshqa narsalar qo'ymang). To'rtta oyoqcha ham barqarorligi va polga tegib turganligiga ishonch hosil qilib, jihoz ham tekis turganligini tekshiring (pufakli sath o'lchagich asbobidan foydalaning).

- Jihoz tekis joylashgach, kontrgaykalarni jihoz asosiga qaratib qotiring. Barcha kontrgaykalar qotirilishi kerak.



Diagonal bo'ylab tekshirish

- Kir yuvish mashinasining qirralari tepadan diagonal bo'ylab bosganda, jihoz umuman pastga, tepaga qimirlamasligi kerak (har ikkala yo'nalishni tekshiring). Agar mashina tepa qismini diagonaliga bosishda jihoz chayqalsa, oyoqchalarni yana rostlang.

Izoh



- Yog'och yoki osma pollar ham ortiqcha tebranish yoki muvozanatni yo'qotishga hissa qo'shishi mumkin.
- Agar kir yuvish mashinasi tepaga ko'tarilgan platformaga o'rnatilsa, tushib ketmasligi uchun mahkam qotirilishi kerak.

Suv kirish shlangini ulash

- Suv bosimi 0,1 MPa va 1,0 MPa (1,0–10,0 kgk/sm²) orasida bo'lishi lozim.
- Suv ta'minoti shlangini klapanga ulashda kesmang yoki yedirib yubormang.
- Agar suv bosimi 1,0 MPa dan yuqori bo'lsa, bosimni kamaytiradigan qurilma o'rnatilishi kerak.
- Shlang holatini muntazam ravishda tekshiring va zarur bo'lganda almashtiring.

Suv kelish shlangidagi rezina qistirma


Suv kelish shlanglari bilan ikkita rezina qistirma beriladi. Ular suv sizib chiqmasligi uchun ishlatiladi. Jo'mrakka ulangan joyi yetarlicha zichligiga amin bo'ling.



Shlangni suv jo'mragiga ulash


Burama mixli shlangni rezbali jo'mrakka ulash

Shlang ulagichini suv kelish jo'mragiga burab ulang.



Burama mixli shlangni rezbasiz jo'mrakka ulash


1 To'rtta qotiruvchi burama mixni bo'shating.




2 Jo'mrak adapterga kattalik qilsa, yo'naltiruvchi plastinani olib tashlang.



3 Adapterni jo'mrak uchiga itarib kirgizing, rezina qistirma suv o'tkazmaydigan tarzda ulansin. To'rtta qotiruvchi burama mixni qotiring.




4 Suv shlangini vertikal yo'nalishda tepaga itaring, shlang ichidagi rezina qistirmani jo'mrakka mahkam joylashtiring, keyin o'ngga burash orqali qotiring.



Oson ulanadigan shlangni rezbasiz jo'mrakka ulash


1 Adapter halqali plastinasini burab chiqaring va to'rtta qotirish burama mixlarini bo'shating.




- 2** Jo'mrak adapterga kattalik qilsa, yo'naltiruvchi plastinani olib tashlang.



- 3** Adapterni jo'mrak uchiga itarib kirgizing, rezina qistirma suv o'tkazmaydigan tarzda ulansin. To'rtta qotirish burama mixlarini va adapter halqali plastinasini qotiring.



- 4** Ulagich lo'kidonini tortib, suv shlangini adapterga kiriting va ulagich lo'kidonini qo'yib yuboring. Adapter joyiga mahkam o'rnashsin.




Izoh

- Suv shlangini jo'mrakka ulashdan oldin uni ochib yuboring, yot jismlar (chang, qum, qirindi va h.k.) chiqib ketsin. Suvni chelakka oqizing va suv haroratini tekshiring.

Shlangni jihozga ulash

Issiq suv shlangini mashina orqasidagi issiq suv oladigan portga ulang. Sovuq suv shlangini mashina orqasidagi sovuq suv oladigan portga ulang.



Izoh


- Ulab bo'lgach, agar shlangdan suv sizib chiqsa, shu bosqichlarni takrorlang. Suv ta'minoti uchun eng oddiy jo'mrakdan foydalaning. Jo'mrak to'rtburchak yoki o'ta katta bo'lsa, uni adapterga tiqishdan oldin yo'naltiruvchi plastinani olib tashlang.

Horizontal jo'mrak ishlatish

Horizontal jo'mrak



Uzaytirilgan jo'mrak




To'rtburchak jo'mrak





Drenaj shlangini o'rnatish

- Drenaj (suv chiqarish) shlangi poldan 100 santimetrdan balandda bo'lmazligi kerak. Jihoz ichidagi suv chiqib ketmasligi yoki sekin chiqishi mumkin.
- Drenaj shlangi mahkam qotirilsa, suv sizib chiqishi tufayli polga shikast yetishining oldi olinadi.
- Agar drenaj shlangi o'ta uzun bo'lsa, uni majburlab jihozga itarib o'rnatmang. Bu noodatiy shovqin keltirib chiqaradi.



- Drenaj shlangini rakovinağa o'rnatmangiz, chilvir bilan bog'lab qo'ying.
- Drenaj shlangi mahkam qotirilsa, suv sizib chiqishi tufayli polga shikast yetishining oldi olinadi.




Kir yuvish mashinasini ishlatish

Ilk bora yuvishdan oldin yuvish dasturini tanlang va yuvish mashinasiga kirlarni solmasdan yuvishni boshlang. Shunda ishlab chiqarishda qolib ketgan qoldiqlar va suv barabandan chiqib ketadi.


1 Kirlarni saralang va yuklang.

- Kirlarni mato turi, kirlanish darajasi, rangi va yuklanish hajmiga ko'ra saralang. Eshigini ochib, kirlarni yuvish mashinasiga soling.




2 Tozalash mahsulotlari va/yoki yuvish vositasi va yumshatgich qo'shing.

- Kir yuvish vositasini tarqatish tortmasiga kerakli miqdorda qo'shing. Kerak bo'lsa, tortma tegishli bo'lmasiga oqartirgich yoki mato yumshatgichini soling.




3 Mashinani yoqing.

- Mashinani yoqish uchun **Quvvat** tugmasini bosing.



4 Kerakli yuvish siklini tanlang.

- Dastur tugmasini takror bosib yoki siklini tanlash murvatini burab, kerakli siklini tanlang.



5 Siklni ishga tushirish.

- Siklni ishga tushirish uchun **Boshlash/To'xtatish** tugmasini bosing. Mashina suvsiz o'zgina ishlab, kirlarning vaznini o'lchaydi. Agar 5 daqiqa ichida **Boshlash/To'xtatish** tugmasi bosilmasa, mashina o'chadi va sozlanmalar saqlanmaydi.



6 Sikl tugashi.

- Sikl tugallangach, kuy yangraydi. G'ijimlanmasligi uchun kiyimlarni darhol mashina ichidan oling. Eshik zichlagichiga ilinib qolishi mumkin bo'lgan mayda buyumlarni tekshirib chiqing.

Kirlarni saralash

1 Kiyimlardagi yoriqlarni ko'ring.

- Ularda mato tarkibidagi tola va uni qanday yuvish haqida ma'lumot beriladi.
- Yoriqlardagi belgilar.




2 Kirlarni saralash.

- Eng yaxshi natijaga erishish uchun kiyimlarni bitta siklda yuvish mumkin bo'lgan uyumlarga ajrating.
- Turli matolarni turli haroratda va turli tezlikda aylantirish orqali yuvish lozim.
- To'q ranglarni doim och ranglar va oqlardan alohida saralang. Alohida yuving, chunki bo'yoq va tuklar aralashishi tufayli oq va och rangli matolarning rangi o'chishi mumkin. Iloji bo'lsa, kuchli kirlanganlarni yengil kirlanganlar bilan birga yuvmang.

- Kirlanish (kuchli, o'rtacha, yengil) : Kirlanish darajasiga qarab kiyimlarni ajrating.
- Rang (oq, och, to'q): Oq matolarni ranglilaridan ajrating.
- Tuk (tuk chiqaruvchi, tuk yig'uvchilar): Tuk chiqaruvchi va tuk yig'uvchilarni alohida yuving.

3 Yuklashdan oldingi parvarish.

- Yuklashda katta va kichkina narsalarni aralashstiring. Avval kattalarini soling.
- Katta narsalar jami yuklam yarmidan oshmasligi kerak. Kirlarni bittalab yuvmang. Bunda yuklam muvozanati yo'qolishi mumkin. Bir yoki ikkita o'xshash kirlarni qo'shing.
- Barcha cho'ntaklarni tekshirib ko'ring, ular bo'sh ekanligiga ishonch hosil qiling. Ignalar, soch qisqichlari, gugurt, ruchka, tanga va kalitlar kir yuvish mashinasi hamda kiyimlarni shikastlashi mumkin.




- Sirtma, ilgak va bog'ichlarni yoping, boshqa kiyimlarga ilinib qolmasin.
- Ozgina miqdordagi yuvish vositasini suvga eritib, kir va dog'lar tezda ketishi uchun ustiga surtib chiqing.
- Egiluvchan (kulrang) zichlagich oralarini tekshiring, mayda narsalar qolib ketgan bo'lsa, olib tashlang.

⚠ DIQQAT

- Baraban ichini tekshirib, avvalgi yuvishdan qolib ketgan buyumlarni olib tashlang.



- Kiyimlar va zichlagichga zarar yetmasligi uchun undagi kiyim yoki buyumlarni olib tashlang.



Tozalash vositalarini qo'shish

Vosita miqdori

- Vositani ishlab chiqaruvchi yo'riqnomasiga qarab ishlatish lozim hamda matoning turi, rangi, kirlanish darajasi va yuvish haroratiga qarab tanlash lozim.
- Agar yuvish vositasi o'ta ko'p ishlatilsa, kuchli ko'piklanib ketib, kir yaxshi yuvilmasligiga yoki motor zo'riqishiga sabab bo'lishi mumkin.
- Agar suyuq vosita ishlatmoqchi bo'lsangiz, ishlab chiqaruvchining yo'l-yo'riqlariga amal qiling.
- Agar siklni darhol ishga tushirayotgan bo'lsangiz, suyuq vositani to'g'ridan-to'g'ri asosiy vosita tortmasiga quyishingiz mumkin.
- Agar Kechiktirish funksiyasini ishlatayotgan bo'lsangiz yoki Dastlabki yuvishni tanlagan bo'lsangiz, suyuq vositadan foydalanmang, chunki u qotib qolishi mumkin.
- Agar kuchli ko'piklanish yuz bersa, yuvish vositasi miqdorini kamaytiring.
- Suv harorati, suvning qattiqligi, kirlarning hajmi va kirlanish darajasiga qarab yuvish vositasining miqdorini rostlash kerak bo'ladi. Eng yaxshi natijaga erishish uchun kuchli ko'piklanishning oldini oling.
- Yuvish vositasi va suv haroratini tanlashdan oldin kiyimlardagi yoriqlarni ko'ring.
- Kir yuvish mashinasini ishlatayotganda har bir turdagi kiyim uchun mo'ljallangan vositadan foydalaning:
 - Barcha turdagi matolar uchun oddiy kukunsimon vositalar
 - Nozik matolar uchun kukunsimon vositalar
 - Barcha turdagi matolar uchun suyuq vositalar yoki faqat jun matolar uchun maxsus kir yuvish vositalari
- Yuvish va oqartirish samarasini oshirish uchun oddiy kukunsimon oqartirgichli vositadan foydalaning.
- Yuvish vositasi sikl boshida kir yuvish vositalari tortmasi bo'lmalaridan yuvib tushiriladi.

Izoh

- Vosita qotib qolishiga yo'l qo'ymang. Buning oqibatida to'silib qolishlar, chayish samarasi pasayishi yoki noxush hid paydo bo'lishi mumkin.
- To'liq yuklanish : Ishlab chiqaruvchining tavsiyasiga binoan.
- Qisman yuklanish : Oddiy miqdorning 3/4 qismi
- Minimal yuklanish : To'liq yuklanishning 1/2 qismi

Yuvish vositasi va mato yumshatgichini qo'shish

Yuvish vositasini qo'shish


- Faqat asosiy yuvish → 
- Dastlabki yuvish+Asosiy yuvish → 

Izoh

- Yuvish vositasi, oqartirgich yoki yumshatgich ko'p ishlatib yuborilsa, toshib ketishi mumkin.
- Kerakli miqdordagi vositani ishlatning.

Mato yumshatgichini qo'shish

- Maksimal miqdor ko'rsatkich chizig'idan oshirib yubormang. Oshirib yuborilsa, mato yumshatgichi vaqtidan oldinroq tarqatilib, kiyimlarga dog' tushirishi mumkin. Kir yuvish vositalari tortmasini sekin yoping.




- Mato yumshatgichini vosita tortmasida 2 kundan ortiq muddatga qoldirmang (mato yumshatgichi qotib qolishi mumkin).
- Yumshatgich so'nggi chayish sikli paytida avtomatik ravishda qo'shiladi.
- Suv to'ldirilayotgan vaqtda tortmani ochmang.
- Eritgich (benzol va hokazo) ishlatilmasin.

Izoh

- Mato yumshatgichini to'g'ridan-to'g'ri matolarga quymang.


Suv yumshatgichini qo'shish

- Suvi haddan tashqari qattiq bo'lgan hududlarda yuvish vositasini tejash maqsadida qasmoqqa qarshi vosita (masalan, Calgon) singari suv yumshatgichi ishlatilishi mumkin. Qadoqda ko'rsatilgan miqdorga qarab qo'shing. Avval yuvish vositasini, keyin suv yumshatgichini qo'shing.
- Yumshoq suv uchun ishlatiladigan miqdorda yuvish vositasini ishlatib.




Tabletka ishlatish

- 1 Eshigini ochib, barabanga tabletka soling.



- 2 Kirlarni barabanga yuklab, eshigini yoping.



Boshqaruv paneli



1 Quvvat tugmasi

- Mashinani yoqish uchun **Quvvat** tugmasini bosing.

2 Boshlash/To'xtatish tugmasi

- Bu **Boshlash/To'xtatish** tugmasi yuvish siklini boshlash yoki to'xtatib turish uchun ishlatiladi.
- Agar yuvish siklini vaqtinchalik to'xtatish kerak bo'lsa, **Boshlash/To'xtatish** tugmasini bosing.

3 Ekran

- Displayda sozlanmalar, taxminiy qolgan vaqt, parametrlar va holat xabarlar ko'rsatiladi. Mashina yoqilganda displayda odatiy sozlanmalar ko'rsatiladi.
- Displayda taxminiy baholangan vaqt ko'rsatiladi. Yuklam vazni avtomatik tarzda o'lganayotganda o'chib yonadi yoki «Выполняется определение» (Aniqlanmoqda) yozuvi paydo bo'ladi.
- Rusumga bog'liq ravishda bir daqiqa ichidagi aylanishlar soni farqlanishi mumkin.

4 Dasturni tanlash murvati

- Dasturlarni kirlarning turiga qarab tanlash mumkin.
- Tanlangan dasturni ko'rsatish uchun chiroq yonadi.

5 Parametrlar

- Bu qo'shimcha dasturni tanlash imkonini beradi va tanlanganda tegishli chiroq yonadi.
- Bu tugmalar yordamida tanlangan sikl uchun kerakli dastur parametrlarini tanlang.
- Masofadan ishgah tushirish funksiyasini ishlatish uchun AQLLI FUNKSIYALAR bo'limiga qarang.

6 Yuvish+Quritish ()

- () rusumga qarab farqlanadigan quritish samaradorligi ko'rsatkichidir.

Dasturlar jadvali

Yuvish dasturi

Dastur	Tavsif	Mato turi	Mos harorat	Maksimal yuklanish
Хлопок (Paxta)	Barabanning turli harakatlari yuvish samaradorligini oshiradi.	Rangli yengil kiyimlar (ko'ylak, tungi ko'ylak, pijama va h.k.) va o'rtacha kirlangan paxtadan ishlangan kiyimlar (ichki kiyimlar).	40 °C (Sovuqdan 95 °C gacha)	Nominal
Хлопок+ (Paxta+)	Katta miqdordagi kirlarga kamroq energiya sarflab, optimal yuvish samarasini beradi.		60 °C (Sovuqdan 60 °C gacha)	
Повседневная (Yengil parvarish)	Ushbu sikl yuvgandan so'ng dazmollashni talab etmaydigan kundalik ko'ylaklarga mos keladi.	Poliamid, akril, sintetika.	40 °C (Sovuqdan 60 °C gacha)	3,0 kg
Смешанные ткани (Aralash)	Turli matolardan ishlangan kiyimlarni bir vaqtda yuvish imkonini beradi.	Maxsus mato (shoyi/ nozik, sport kiyimlari, to'q kiyimlar, jun, par adyol/pardalar)dan tashqari turli xildagi matolar.	40 °C (Sovuqdan 40 °C gacha)	
Гипоаллергенная (Allergiyadan himoya)	Uy kanasi, gul changi va mushuk yungi singari allergenlarni yo'qotishda yordam beradi.	Paxta, ichki kiyim, yostiq g'ilofi, choyshab, go'dak kiyimlari	60 °C	
Пуховое одеяло (Par adyol)	Choyshab, yostiq, divan qoplamasi va boshqa yirik buyumlarni yuvish uchun foydalaniladi.	Maxsus mato (nozik, jun, shoyi va h.k.)dan tashqari paxtadan qilingan, ichi to'ldirilgan yotoq to'plamlari: pahmoq adyol, yostiq, choyshablar, ichi yengil to'ldirilgan divan yopinchiqlari	Sovuq (Sovuqdan 40 °C gacha)	1 ta bir o'lchamli
Спортивная одежда (Sport kiyimlari)	Ushbu sikl yugurishda kiyiladigan kiyimlar singari sport kiyimlarini yuvish uchun mosdir.	Kulmaks, gorteks, flis va simpateks tolalari.	40 °C (Sovuqdan 40 °C gacha)	2,0 kg

Dastur	Tavsif	Mato turi	Mos harorat	Maksimal yuklanish
Одежда малыша + Пар (Go'daklar kiyimi + Bug')	Qotgan va oqshil dog'larini ketkazadi, chayish samarasini oshiradi.	Yengil kirlangan go'dak kiyimlari.	60 °C	3,0 kg
Быстро Стирка+Сушка (Tezkor Yuvish+Quritish)	1-3 dona yengil kirlangan kiyimlarni 80 daqiqa davomida yuvishdan quritishgacha bo'lgan jarayonni amalga oshiradi.	Aralash mato (paxta va poliester)dan ishlangan ko'ylaklar, bluzkalar.	20°C (20°C dan 40°C gacha)	3 ta buyum
Деликатная (Mayin yuvish)	Ichki kiyimlar, bluzkalar kabi nozik kiyimlar mos keladi.	Nozik, oson shikast yetadigan kiyimlar.	20 °C (Sovuqdan 40 °C gacha)	2,0 kg
Быстро 30 (Tezkor 30)	Bu siklda oz miqdordagi va yengil kirlangan kiyimlar tezda yuviladi.	Yengil kirlangan rangli kiyimlar.	20 °C (Sovuqdan 40 °C gacha)	
Бережная (Avaylab yuvish)	Qo'lda va kir yuvish mashinasida yuviladigan jun, ichki kiyim, ko'ylak va h.k. kabi yuvish mumkin bo'lgan nozik kiyimlar uchun ushbu dasturdan foydalaniladi (kir yuvish mashinasida yuvish mumkin bo'lgan jun matosi uchun mo'ljallangan yuvish vositasidan foydalaning).	Jun, qo'lda yuviladigan kiyimlar, nozik, oson shikastlanadigan kirlar.	20 °C (Sovuqdan 30 °C gacha)	1,5 kg
Стирка+Сушка (Yuvish+Quritish)	Bir dasturning o'zida yuvish va ketidan quritish jarayonini amalga oshiradi.	Kam miqdordagi quritish mumkin bo'lgan kiyimlar	40 °C (Sovuqdan 95 °C gacha)	4,0 kg
Моя программа (Siklni yuklab olish)	Yuklab olsa bo'ladigan dasturlar uchun. Hech qanday dastur yuklab olmagan bo'lsangiz, standart Полоскание+Отжим (Chayish+Siqish) siklidan foydalaniladi.			

Quritish dasturi

Dastur	Tavsif	Mato turi	Maksimal yuklanish
Стандартная (Standart) ()	Paxtadan ishlangan buyumlar uchun mo'ljallangan. Quritish vaqtini qisqartirish va sikl davomida energiyani tejash uchun ushbu dasturni tanlang.	Paxta va zig'ir tolasidan ishlangan buyumlar, masalan, paxtadan sochiqlar, maykalar va zig'irdan kiyimlar.	Nominal
Стандартная экосушка (Standart ekoquritish) ()	Energiyani tejovchi dastur turidir.		
Холодная сушка. (Past haroratda quritish) ()	Kirlarlarni shikastlamaslik uchun past haroratda quritadi.	Nozik matolar, sintetik matolar. Yengil parvarish, aralash dasturlari uchun yuviladigan kiyimlar.	2,5 kg
Для облегчения глажки (Dazmollashni yengillashtiruvchi) ()	Oson dazmollanishi uchun kiyimlarni nam holatgacha quritadi.	Paxta yoki zig'ir tolali matolar dastur so'nggida dazmollashga tayyor bo'ladi.	Nominal
Время (Vaqt): 30 daq.	Quritish vaqtini maksimal yuklamga muvofiq o'zgartirishingiz mumkin.	Paxta matolar, sochiqlar.	0,5 kg
Время (Vaqt): 60 daq.			1,0 kg
Время (Vaqt): 120 daq.			2,0 kg

- EN50229 standartiga muvofiq sinov o'tkazish uchun dasturni «Стирка: Хлопок+, 60 °C, 1200 об/мин» ("Yuvish: Paxta+, 60 °C, 1200 ayl./daqiq") va «Сушка: Стандартная экосушка» ("Quritish: Standart ekoquritish") ()'ga o'rnatish.

Izoh

- Quritish natijasi yaxshi bo'lishi uchun baraban aylanish tezligini maksimal qiymatga sozlang.
- Ketma-ketlikda yuviladigan va quritiladigan kir miqdori quritish dasturi uchun ruxsat berilgan maksimal og'irlikdan oshmasa, ushbu jarayonlarni birin-ketin amalga oshirish tavsiya etiladi.

Qo'shimcha parametrlar

Dastur	Предв. Стирка (Dastlabki yuvish)	Отложенная стирка (Yuvishni kechiktirish)	Полоскание+ (Chayish+)	Сушка (Quritish)
Хлопок (Paxta)	•	•	•	•
Хлопок+ (Paxta+)	•	•	•	•
Смешанные ткани (Aralash)	•	•	•	•
Повседневная (Yengil parvarish)	•	•	•	•
Пуховое одеяло (Par adyol)		•	•	
Гипоаллергенная (Allergiyadan himoya)		•	•	•
Одежда малыша + Пап (Go'daklar kiyimi + Bug')		•	•	•
Спортивная одежда (Sport kiyimlari)		•	•	
Бережная (Avaylab yuvish)		•	•	
Деликатная (Mayin yuvish)		•	•	
Быстро Стирка+Сушка (Tezkor Yuvish+Quritish)		•		•
Стирка+Сушка (Yuvish+Quritish)	•	•	•	•
Быстро 30 (Tezkor 30)	•	•	•	•

- : Bu parametr siklga avtomatik ravishda qo'shilgan, uni o'chirib bo'lmaydi.

Ishlash xususiyatlari

Dastur	Bir daqiqa ichida maksimal aylanishlar soni
	F2J7HG(P)(0~9)W/S
Хлопок (Paxta)	1200
Хлопок+ (Paxta+)	1200
Смешанные ткани (Aralash)	1200
Повседневная (Yengil parvarish)	1000
Пуховое одеяло (Par adyol)	1000
Гипоаллергенная (Allergiyadan himoya)	1200
Одежда малыша + Пар (Go'daklar kiyimi + Bug')	1000
Спортивная одежда (Sport kiyimlari)	800
Бережная (Avaylab yuvish)	800
Деликатная (Mayin yuvish)	800
Быстро Стирка+Сушка (Tezkor Yuvish+Quritish)	1000
Стирка+Сушка (Yuvish+Quritish)	1200
Быстро 30 (Tezkor 30)	1200

Ixtiyoriy dastur

Отложенная стирка (Yuvishni kechiktirish)

Yuvishni kechiktirish sozlanmasini o'rnatishingiz mumkin, shunda mashina avtomatik ravishda ishini boshlab, belgilangan vaqt oralig'idan so'ng tugatadi.

- 1 **Quvvat** tugmasini bosing.
- 2 Yuvish dasturini tanlang.
- 3 Kerakli vaqtni qo'yish uchun **Отложенная стирка (Yuvishni kechiktirish)** tugmasini bosing.
- 4 **Boshlash/To'xtatish** tugmasini bosing.

Izoh

- Yuvishni kechiktirish dasturning boshlanishini emas, tugash vaqtini belgilaydi. Haqiqiy ishlash vaqti suvning harorati, yuklam hajmi va boshqa omillarga qarab o'zgarishi mumkin.
- Funksiyani bekor qilish uchun Quvvat tugmasini bosish lozim.
- Bu dastur uchun suyuq vositani ishlatmang.

Предв. Стирка (Dastlabki yuvish) (⏮)

Agar yuviladigan kirlar o'ta ifloslangan bo'lsa, Предв. Стирка (Dastlabki yuvish) dasturini ishlatish tavsiya etiladi.

- 1 **Quvvat** tugmasini bosing.
- 2 Yuvish dasturini tanlang.
- 3 **Предв. Стирка (Dastlabki yuvish)** tugmasini bosing.
- 4 **Boshlash/To'xtatish** tugmasini bosing.

Wi-Fi (📶)

Wi-Figa ulangach, boshqaruv panelida Wi-Fi tasvircasi yonadi.

Температура (Harorat)

Температура (Harorat) tugmasi tanlangan dastur uchun yuvish va chayish harorati darajasini tanlaydi. Kerakli sozlanma ishga tushguniga qadar shu tugmani bosib turing. Barcha chayish sikllari uchun sovuq suv ishlatiladi.

- Yuvish uchun kirlar turiga mos keladigan suv haroratini tanlang. Yaxshi natijaga erishish uchun kiyimdagi yorliqlarga amal qiling.

Отжим (Siqish)

- Отжим (Siqish) tugmasini takroran bosish orqali siqish tezligini tanlash mumkin.
- Faqat siqish

- 1 **Quvvat** tugmasini bosing.
- 2 Bir daqiqa ichida aylanishlar sonini tanlash uchun **Отжим (Siqish)** tugmasini bosing.

- 3 **Boshlash/To'xtatish** tugmasini bosing.

Izoh

- **No(Siqish yo'q)** rejimini tanlasangiz, baraban suvni chiqarib tashlash uchun qisqa vaqt aylanishda davom etadi.

Полоскание (Chayish)

Полоскание+ (Chayish+) (⏮+)

Bir marta takror chayish siklini qo'shish.

Добавить белье (Kirni qo'shish)



Yuvish dasturi boshlangandan so'ng kirni qo'shish yoki olib tashlash mumkin.

- 1 LED yonganda **Добавить белье (Kirni qo'shish)** tugmasini bosing.
- 2 Kirni qo'shing yoki olib tashlang.
- 3 Eshikni yopib, **Boshlash/To'xtatish** tugmasini bosing.

Izoh

- Xavfsizlik nuqtai nazaridan suv sathi yoki harorat baland bo'lganda eshiq qulf holatda turadi. Bu paytda kir qo'shib bo'lmaydi.
- Agar barabandagi suv harorati baland bo'lsa, sovlashini kuting.

⚠️ DIQQAT

- Kir qo'shishda uni barabanga oxirigacha yuklang. Agar kiyim eshikning lo'kidon teshigiga tiqilib qolsa, rezina zichlagich shikastlanib, suv sizib chiqish yoki noto'g'ri ishlashga olib kelishi mumkin.
- Eshikni kuch bilan ochish natijasida qismlarga shikast yetishi, buzilishi yoki xavfsizlik muammolariga duch kelish mumkin.
- Agar barabanda ko'pik va suv ko'p bo'lgan paytda eshigini ochsangiz, ko'pik yoki suv oqib ketib, kuyishga olib kelishi yoki polni ho'l qilishi mumkin.

Сушка(Quritish) (🌀)

Ko'pgina kirlarni quritish uchun avtomatik dasturlardan foydalaning. Elektron sensorlar quritish haroratini ko'tarish yoki pasaytirish uchun chiqishdagi haroratni o'lchab turadi va bu yanada tezkor reaksiya vaqti va harorat boshqaruviga erishishda yordam beradi.

- Quritish sikli vaqtida sovuq suv jo'mragi ochiq qoldirilishi kerak.
- Ushbu kir yuvish mashinasining yuvishdan quritishgacha bo'lgan avtomatik jarayonini oson tanlash mumkin.
- Ko'pgina, hatto quritish rejimida kirlarning barchasi o'xshash turda va qalinlikda bo'lishini ta'minlang.
- Baraban ichiga juda ko'p narsa solib kir yuvish mashinasini yuklab tashlamang. Ular bema'lol aylana olishi ta'minlanishi shart.
- Agar kir yuvish mashinasi o'z siklini nihoyasiga yetkazmasdan turib eshigini ochib kirlarni chiqarmoqchi bo'lsangiz, **Boshlash/To'xtatish** tugmasini bosishni unutmang.
- **Сушка (Quritish)** tugmasini bosish orqali siz quyidagilarni tanlashingiz mumkin:
«Стандартная» (Standart)-«Время»(Vaqt) (30-60-120)-«Для глажки»(Dazmollashni yengillashtiruvchi)—«Холодная сушка» (Past haroratda quritish)—«Стандартная экоосушка» (Standart ekoquritish).
- Quritish sikli nihoyasiga yetgandan so'ng '🌀' displeyda ko'rinadi. '🌀' burmalar kamayganligini bildiradi. Quritish sikli allaqachon bajarildi. Istagan tugmani bosing va kiyimlarni chiqaring. Agar **Boshlash/To'xtatish** tugmasini bosmasangiz, dastur taxminan 4 soatdan so'ng tugaydi.

Izoh

- Kir yuvish mashinasini quritish vaqtida o'chirsangiz, quritish dvigateli o'z-o'zini himoya qilish maqsadida 30 soniya davomida ishlashi mumkin.
- Kirlarni kir yuvish mashinasidan olayotganingizda ehtiyot bo'ling, chunki ular yuqori haroratda bo'lishi mumkin.

Jun buyumlar

- Jun narsalarni mashinada quritmag. Ularni asl shakliga keltiring va tekis holatda quriting.

To'qilgan buyumlar

- Ayrim to'qilgan buyumlar miqdoriga, sifatiga qarab qisqarib qolishi mumkin.
- Ularni quritgandan so'ng darhol cho'zib qo'ying.

Plisse va sintetik matolar

- Kir yuvish mashinangizni og'ir kirlar bilan yuklab tashlamang.
- G'ijimlanishning oldini olish uchun mashina yuvishdan to'xtashi bilan plisse qilingan narsalarni chiqarib oling.

Bolalar kiyimlari va tungi ko'ylaklar

- Doimo ishlab chiqaruvchining ko'rsatmalariga qarang.

Rezina va plastik

- Rezina va plastik qismlarga ega buyumlarni quritmag. Masalan:
 - fartuklar, bolalar oshxo'ragi, stul yopinchiqlari
 - pardalar va dasturxonlar
 - vanna gilamchalari

Shisha tola

- Kir yuvish mashinangizda shisha tolali buyumlarni quritmag. Kir yuvish mashinasi ichida shisha parchalari qolib ketishi mumkin va keyingi safar kir yubilganda ular kiyimlaringizga yopishib qolishi va teringizga shikast yetkazishi mumkin.

Tavsiya etiladigan quritish vaqti

- Quritish vaqti **Сушка (Quritish)** tugmasini bosish orqali tanlanishi mumkin.
- Quritish dasturi 7 soatgacha davom etishi mumkin.
- Ushbu tavsiyalar kir yuvish mashinasida qo'lda sozlanadigan quritish rejimini sozlashga yordam beradi.

Izoh

- Avtomatik dastur vaqtida taxminiy quritish vaqti haqiqiy quritish vaqtidan farqlanadi. Mato turi, yuklam o'lchami va tanlangan quruqlik darajasi quritish vaqtiga ta'sir ko'rsatadi.
- Faqat quritish tanlansa, energiyani tejash maqsadida avtomatik tarzda siqish ishga tushiriladi.

Блокировка от детей (Bolalardan himoyalash)

Bu funksiya yordamida tugmalar ishlamay qoladi. Shunda bolalar sikllarni o'zgartirishi yoki jihozni ishlatishining oldi olinadi.

Башқарув панелини чекаш

- 1 Блокировка от детей (Bolalardan himoyalash)** tugmasini uch soniya bosib turing.
- 2** Ovozli signal beriladi va displeyda  paydo bo'ladi. Bolalardan himoyalash yoqilganda **Quvvat** tugmasidan boshqa barcha tugmalar uchun himoya o'rnatiladi.

Изоҳ

- O'chirib qo'yilsa ham, Блокировка от детей (Bolalardan himoyalash) funksiyasi o'zgarmaydi. Boshqa funksiyalarga kirish uchun bolalardan himoyalash funksiyasini o'chirishingiz kerak.

Башқарув панелини чеклашни бекор қилиш

Блокировка от детей (Bolalardan himoyalash) tugmasini uch soniya bosib turing.

- Ovozli signal beriladi va joriy dastur tugashiga qadar qolgan vaqt displeyda ko'rinadi.

Включение/выключение звукового сигнализатора (Ovozli signalni yoqish/o'chirish)

- 1 Quvvat** tugmasini bosing.
- 2 Boshlash/To'xtatish** tugmasini bosing.
- 3** Ovozli signal funksiyasini yoqish/o'chirish uchun **Температура (Harorat)** va **Отжим (Siqish)** tugmalarini bir vaqtda 3 soniya davomida bosib turing.

Изоҳ

- Ovozli signalni yoqish/o'chirish funksiyasi sozlangandan so'ng ushbu sozlanma hatto quvvat o'chirilgandan so'ng ham xotirada qoldiriladi.
- Ovozli signalni o'chirib qo'yomoqchi bo'lsangiz, shu yuqoridagi harakatlarni takrorlang.

LG SmartThinQ ilovasidan foydalanish

LG SmartThinQ ilovasidan foydalanishdan avval quyidagilarni tekshiring


uchun:  yoki 

1 Jihoz va simsiz router (Wi-Fi tarmoq) orasidagi masofani tekshiring.


- Agar jihaz va simsiz router orasidagi masofa juda uzoq bo'lsa, signal kuchi pasayadi. Ulanishga uzoq vaqt talab qilishi yoki o'rnatish muvaffaqiyatsiz bo'lishi mumkin.

2 Smartfoningizdagi **uyali aloqa ma'lumotlarini uzatish funksiyasini** o'chiring.

- iPhone telefonlarida **Sozlamalar** → **Mobil** → **Uyali aloqa ma'lumotlari** yordamida uyali aloqa ma'lumotlarini uzatish funksiyasini o'chiring.



3 Smartfoningizni simsiz routerga ulang.



Izoh

- Wi-Fi ulanishini tekshirish uchun boshqaruv panelida **Wi-Fi**  belgisi yoqilganligini ko'ring.
- Bu jihaz faqat 2.4 GHz chastotali Wi-Fi tarmoqlarda ishlaydi. Tarmoq chastotasini tekshirish uchun internet ta'minotchingizga murojaat qiling yoki simsiz router qo'llanmasiga qarang.
- LG SmartThinQ tarmoqqa ulanish muammolari yoki tarmoqqa yuzaga kelgan har qanday nosozlik, noto'g'ri ishlash yoki xatolarni bartaraf qilish uchun mo'ljallanmagan.
- Agar jihazlar Wi-Fi tarmog'iga ulana olmasa, muammo jihaz routerdan uzoqda joylashganligi sababli yuzaga kelgan bo'lishi mumkin. Wi-Fi signalini kuchaytirish uchun Wi-Fi retranslyator (signal kuchaytirgich) sotib oling.
- Uydagi tarmoq muhitiga qarab Wi-Fi ulanishi o'rnatilmasligi yoki uzilib qolishi mumkin.
- Internet ta'minotchisiga qarab, tarmoq ulanishida muammolar yuzaga kelishi mumkin.
- Atrofdagi simsiz aloqa muhiti tufayli simsiz tarmoq xizmati sekin ishlashi mumkin.
- Simsiz signal uzatilishida muammo bo'lsa, jihaz tarmoqqa ulana olmaydi. Jihazni o'chiring va yana urinib ko'rishdan avval taxminan bir daqiqa kuting.
- Agar simsiz routingizda himoya devori yoniq bo'lsa, himoya devorini o'chiring yoki uni istisnalar ro'yxatiga kiriting.
- Simsiz tarmoq nomi (SSID) inglizcha harflar va raqamlar birikmasidan iborat bo'lishi lozim. (Maxsus belgilarni ishlatmang)
- Smartfonning foydalanuvchi interfeysi (UI) mobil operatsion tizim (OS) va ishlab chiqaruvchiga qarab farq qilishi mumkin.
- Agar routerning xavfsizlik protokoli **WEP** qilib belgilangan bo'lsa, tarmoqni sozlay olmasligingiz mumkin. Uni boshqa xavfsizlik protokoliga o'zgartirib (**WPA2** tavsiya etiladi) va jihazni qaytadan ro'yxatdan o'tkazing.

LG SmartThinQ ilovasini o'rnatish

Smartfonda Google Play Store yoki Apple App Store do'konlaridan LG SmartThinQ ilovasini qidiring. Ilovani yuklab olish va o'rnatish ko'rsatmalariga amal qiling.

Wi-Fi funksiyasi

- Quyidagi belgi tushirilgan jihozlar uchun:  yoki



Qulay aqlli funksiyalar yordamida smartfon orqali jihozga ulaning.

Mashina sikli (Masofadan ishga tushirish, Siklni yuklab olish)

Kerakli siklni tanlang yoki yuklab oling va uni masofadan turib boshqaring.

Barabanni tozalash bo'yicha tavsiyalar

Bu funksiya Barabanni tozalash siklini ishlatish uchun nechta sikl qolganini ko'rsatadi.

Energiya iste'moli nazorati

Oxirgi ishlatilgan sikllardagi va bir oy ichidagi o'rtacha energiya sarfini tekshirish imkonini beradi.

Smart Diagnosis™

Bu funksiya foydalanish tartibiga ko'ra jihozga tashxis qo'yish va muammolarini hal qilishga oid foydali ma'lumotlarni olishda yordam beradi.

Sozlanmalar

Turli funksiyalar mavjud.

Majburiy bildirishnomalar

Jihozning holati haqida bildirishnoma olish uchun Majburiy bildirishnomalarni yoqib qo'ying. LG SmartThinQ ilovasi faollashtirilmagan bo'lsa ham, bildirishnoma yuborilaveradi.

Izoh

- Agar simsiz marshrutizator, internet ta'minotchisi yoki kalit so'zni o'zgartirsangiz, ro'yxatga olingan jihozni LG SmartThinQ ilovasidan o'chirib yuboring va uni qaytadan ro'yxatdan o'tkazing.
- Mahsulot sifatini oshirish maqsadida foydalanuvchiga oldindan ogohlantirishsiz ilovaga o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.
- Rusumga bog'liq ravishda xususiyatlar o'zgarishi mumkin.

Yuvish sikli

Удаленный старт (Masofadan ishga tushirish) ()

Smartfon orqali jihozingizni masofadan boshqaring. Sikl ishlashini nazorat qilish ham mumkin, bunda sikl yakunlanguniga qadar qancha vaqt qolganligi haqida ma'lumot olasiz.

Masofadan ishga tushirish funksiyasini faollashtirish uchun:

- 1 Quvvat tugmasini bosing.
- 2 Barabanga kirlarni soling.
- 3 Masofadan ishga tushirish funksiyasini yoqish uchun **Удаленный старт (Masofadan ishga tushirish)** tugmasini 3 soniya bosib turing.
- 4 Kir yuvish mashinasini ishga tushirish uchun smartfondagi LG SmartThinQ ilovasida birorta siklni ishga tushiring.

Izoh

- Masofadan ishga tushirish rejimi yoqilgach, smartfondagi LG SmartThinQ ilovasi yordamida siklni ishga tushirish mumkin. Sikl ishga tushirilmasa, ilova yordamida sikl o'chirilmaguncha yoki masofadan ishga tushirish funksiyasi o'chirib qo'yilmaguncha mashina masofadan ishga tushirish buyrug'ini kutib turadi.
- Masofadan ishga tushirish funksiyasi yoqilgach, eshik avtomatik ravishda qulflanadi.

Masofadan ishga tushirish funksiyasini o'chirish uchun:

Masofadan ishga tushirish funksiyasi faollashtirilgan bo'lsa, **Удаленный старт (Masofadan ishga tushirish)** tugmasini 3 soniya bosib turing.

Моя программа (Siklni yuklab olish)

Jihozdagi sikllarda mavjud bo'lmagan yangi va maxsus sikllarni yuklab oling.

Jihozni muvaffaqiyatli ro'yxatdan o'tkazgach, turli maxsus sikllarni yuklab olish mumkin.

Jihozda bir vaqtning o'zida faqat bitta siklni saqlab olish mumkin.

Jihoz siklni yuklab olgach, boshqa sikl yuklab olinguncha, avvalgi yuklab olingan siklni saqlab qoladi.

Kutish rejimida energiya iste'moli	0,5 Vt
Kutish rejimida tarmoq energiya iste'moli	3,0 Vt
Quvvatni boshqarish yoki shunga o'xshash funksiya ushbu vaqt o'tib bo'lgach, jihozni kutish rejimi va/ yoki o'chirilgan rejimga va/yoki tarmoqda kutish holatiga o'tkazadi.	20 daq.

Ochiq manbali kodli dasturiy ta'minot

haqida bildirishnoma

GPL, LGPL, MPL va boshqa ochiq kod litsenziyalari asosida ushbu mahsulot tarkibidagi manba kodini olish uchun <http://opensource.lge.com> sahifasiga tashrif buyuring.

Manba kodidan tashqari barcha tegishli litsenziya shartlari, kafolatni rad etish bayonotlari va mualliflik huquqiga oid bildirishnomalarni yuklab olish mumkin.

Elektron pochta orqali opensource@lge.com manziliga so'rovnomaga yuborsangiz, LG Electronics manba kodini CD-ROM orqali yetkazib berishi mumkin, bunda xarajatlar (disk narxi, yetkazib berish va h.k.)ni qoplashingiz kerak bo'ladi. Bu taklif siz mahsulotni xarid qilgan sanadan boshlab 3 (uch) yil muddatga amal qiladi.

Smartfon yordamida Smart Diagnosis™ (Aqlli tashxis)

- Quyidagi belgi tushirilgan jihozlar uchun:  yoki 

Jihoz noto'g'ri ishlasa yoki ishlamay qolsa, ushbu funksiya yordamida LG Electronics mijozlarni qo'llab-quvvatlash markazi tomonidan aniq tashxis oling.


Jihoz elektr manbaiga ulanmagan bo'lsa, Smart Diagnosis™ (Aqlli tashxis) funksiyasi ishlamaydi. Agar jihoz yoqilmasa, nosozlikni Smart Diagnosis™ (Aqlli tashxis) funksiyasidan foydalanmagan holda bartaraf qilishga to'g'ri keladi.

Smart Diagnosis™ (Aqlli tashxis) funksiyasini ishlatish

LG Electronics mijozlarni qo'llab-quvvatlash markazi orqali Smart Diagnosis™ (Aqlli tashxis) tizimi

Jihoz noto'g'ri ishlasa yoki ishlamay qolsa, ushbu funksiya yordamida LG Electronics mijozlarni qo'llab-quvvatlash markazidan aniq tashxis kerak bo'lganda shu funksiyadan foydalaning. Bu funksiyadan doimiy ishlatish vaqtida emas, balki markaz vakili bilan bog'lanish uchun foydalaning.

- 1 Mashinani yoqish uchun **Quvvat** tugmasini bosing. Boshqa hech qanday tugmani bosmang yoki dasturni tanlash murvatini buramang.
- 2 Mijozlarga xizmat ko'rsatish markazi yo'l-yo'riq berganda telefoningizning mikrofonini **Quvvat** tugmasiga yaqinlashtiring.



- 3 Telefon mikrofonini tasvирcha yoki **Quvvat** tugmasiga tutib turgan holda **Температура (Harorat)** tugmasini uch soniya bosib turing.

- 4 Ma'lumot uzatilguniga qadar telefonni shunday tutib turing. Ma'lumot uzatuvi yakunlanishiga qadar qolgan vaqt displeyda ko'rsatiladi.

- Yaxshi natijaga erishish uchun ma'lumotni uzatish paytida telefonni siljitmang.
- Agar markaz vakili ma'lumotni aniq yozib ololmasa, sizdan qaytadan urinib ko'rishni so'rashi mumkin.

- 5 Vaqt tugab, signal uzatish yakunlangandan so'ng mijozlarni qo'llab-quvvatlash markazi xodimi bilan suhbatni davom ettiring, u tahlil uchun uzatilgan ma'lumotlar orqali sizga texnik xizmat ko'rsata oladi.

Izoh

- Smart Diagnosis™ (Aqlli tashxis) funksiyasi mahalliy aloqa sifatiga bog'liq.
- Uy telefonidan foydalansangiz, aloqa yaxshilanadi va yaxshiroq xizmat ko'rsatiladi.
- Agar aloqa sifati yomonligi tufayli Smart Diagnosis™ (Aqlli tashxis) ma'lumot uzatuvi yomon bo'lsa, Smart Diagnosis™ (Aqlli tashxis) xizmati yordamida oliy sifatli texnik ko'mak ololmasligingiz mumkin.


⚠ OGOHLANTIRISH

- Tok urmasligi uchun tozalashdan oldin kir yuvish mashinasini tokdan uzing. Bu ogohlantirishga amal qilinmasa, jiddiy jarohat, yong'in, tok urishi yoki o'limga olib kelishi mumkin.
- Kir yuvish mashinasini tozalash uchun hech qachon agressiv kimyoviy moddalar, abraziv tozalash moddalari yoki erituvchilarni ishlatmang. Ular jihoz yuzasiga shikast yetkazishi mumkin.

Kir yuvish mashinasini tozalash

Yuvishdan so'nggi parvarish

- Sikl tugallangach, eshikni va eshik zichlagichini artib, namlikni yo'qoting.
- Baraban ichini quritish uchun eshigini ochiq qoldiring.
- Mashina korpusini quruq mato bilan artib quring.



Jihoz tashqi qismini tozalash

Kir yuvish mashinasini to'g'ri parvarishlash uning xizmat ko'rsatish muddatini uzaytiradi.

Eshik:

- Jihoz tashqi va ichki qismlarini avval nam mato bilan, so'ngra quruq yumshoq mato bilan artib tashlang.

Korpus:

- Har qanday sachragan suvni darhol artib oling.
- Nam mato bilan arting.
- Sirtini yoki displeyni o'tkir jismlar bilan bosmang.


Jihoz ichki qismini tozalash

- Mashina eshigi atrofi va oynasini artishda sochiq yoki yumshoq mato ishlatning.
- Sikl tugallanishi bilan doim mashina ichidan kirlarni chiqarib oling. Nam buyumlar mashina ichida qolsa, g'ijimlanishi, rangi o'tishi yoki noxush hid hosil bo'lishi mumkin.
- Yuvish vositasi qoldiqlari yoki boshqa qoldiqlarni olib tashlash uchun Очистка барабана (Barabanni tozalash) dasturini oyda bir marta (kerak bo'lsa, ko'proq) bajaring.


Suv kirish filtrini tozalash

- Agar mashina uzoq vaqt ishlatilmaydigan bo'lsa (masalan, bayram tufayli), ayniqsa, polda drenaj bo'lmasa, mashinaga ulangan jo'mraklarni yopib qo'ying.
- Yuvish vositasi tortmasiga suv kirmayotganida boshqaruv panelida  tasviri ko'rsatiladi.
- Agar suv o'ta qattiq bo'lsa yoki unda ohak cho'kindilari bo'lsa, suv kirish filtri tiqilib qolishi mumkin. Shuning uchun uni vaqti-vaqti bilan tozalab turgan ma'qul.

- 1 Suv jo'mragini yopib, suv ta'minoti shlangini burab chiqaring.




- 2 Filtrni qattiq cho'tka bilan tozalang.



Drenaj nasosi filtrini tozalash

- Drenaj filtri kirdan chiqqan iplar va shu kabi narsalarni yig'adi. Kir yuvish mashinangiz bir maromda ishlashini ta'minlash uchun ushbu filtni tez-tez tozalab turing.
- Drenaj nasosini tozalash, favqulodda holatda bo'shatish yoki favqulodda holatda eshikni ochishdan oldin suvning sovishini kuting.


1 Qopqoqni oching va shlangni tortib chiqaring.




2 Drenaj tiqinini chiqarib, filtni chapga burash orqali oching.




3 Nasos filtridan begona jismlarni olib tashlang.



4 Tozalab bo'lgach, filtni joylashtiring va soat strelkasi bo'ylab mahkam burang. Drenaj tiqinini qayta o'rninging.



5 Qopqoqni yoping.




⚠️ DIQQAT

- Avval drenaj shlangi orqali suvni chiqarib yuboring, keyin ip yoki jismlarni olib tashlash uchun nasos filtrini oching.
- Suvni chiqarib yuborishda ehtiyot bo'ling, qaynoq bo'lishi mumkin.

Kir yuvish vositalari tortmasini tozalash

Kir yuvish vositalari tortmasida yuvish vositasi va mato yumshatgichi yig'ilib qolishi mumkin. Oyda bir yoki ikki marta tortmani va uning bo'lmalarini chiqarib va qoldiqlar yig'ilib qolmaganligini tekshiring.

- 1 Kir yuvish vositalari tortmasini o'zingizga tomon tortib chiqaring.
 - Bo'shatish tugmasini qattiq bosib va tortmani chiqarib oling.



- 2 Tortmadagi bo'lmalarni chiqaring.
 - Bo'lmalar va tortmani iliq suvda chayib, to'planib qolgan yuvish vositalarini tozalab tashlang. Kir yuvish vositalari tortmasini tozalash uchun faqat suvdan foydalaning. Bo'lmalar va tortmani yumshoq mato yoki sochiq bilan quritib.
- 3 Tortma tirqishini tozalash uchun mato yoki metal bo'lmagan kichkina cho'tkadan foydalaning.
 - Tepa va quyi qismlarida qolib ketgan qoldiqlardan tozalang.
- 4 Barcha nam yuzalarni yumshoq mato yoki sochiq bilan artib tashlang.
- 5 Qo'shimcha qism va bo'lmalarni o'rnatib va tortmani joyiga o'rnatib.

Очистка барабана (Barabanni tozalash) (☺) (Ixtiyoriy)

Barabanni tozalash bu mashinaning ichini tozalash uchun maxsus dasturdir.

Bu dasturda suv sathi balandroq, aylanish tezligi yuqoriroq bo'ladi. Bu dasturni muntazam ravishda bajaring.

- 1 Mashinadan har qanday kiyim yoki buyumlarni olib tashlab, eshigini yoping.
- 2 Kir yuvish vositalari tortmasini oching va asosiy yuvish bo'lmasisga qasmoqqa qarshi vosita (masalan, Calgon) qo'shing.
 - Tabletka bo'lsa, baraban ichiga soling.
- 3 Kir yuvish vositalari tortmasini sekin yoping.
- 4 Mashinani yoqing va **Barabanni tozalash** tugmasini 3 soniya bosib turing. Displayda **CL** ko'rinadi.
- 5 Boshlash uchun **Boshlash/To'xtatish** tugmasini bosib.
- 6 Dastur tugallangach, mashina eshigini ochiq qoldiring, shunda eshik tirqishi, egiluvchan zichlagich va eshik shishasi quriydi.

⚠️ DIQQAT

- Agar uyingizda yosh bola bor bo'lsa, eshikni uzoq vaqt ochiq qoldirmang.

Izoh


- Yuvish vositasi bo'lmalariga vosita solmang. Ortiqcha ko'pik hosil bo'lib, mashinadan sizib chiqishi mumkin.

Qishda muzlashdan saqlash


- Jihoz muzlab qolsa, odatdagiday ishlamaydi. Jihozni qishda muzlab qolmaydigan joyga o'rnatib.
- Agar jihozni tashqariga, ayvonga yoki shunga o'xshash joyga o'rnatish kerak bo'lsa, quyidagilarni tekshirib ko'ring.

Jihozni muzlashdan himoyalash

- Yuvib bo'lgandan so'ng qoldiq suvni chiqarib tashlashda ishlatiladigan shlang tiqinini ochish orqali nasos ichida qolgan suvni butunlay chiqarib tashlang. Suv butunlay chiqib ketgach, qoldiq suvni chiqarib tashlashda ishlatiladigan shlang tiqinini va qopqoqni yoping.




- Shlangdagi suv butunlay chiqib ketishi uchun drenaj shlangini pastga osiltirib qo'ying.



⚠️ DIQQAT

- Drenaj shlangi egri shaklda o'rnatilgan bo'lsa, ichki qismi muzlab qolishi mumkin.

- Jo'mrakni yopgandan so'ng suv kirish shlangini jo'mrakdan ajratib va shlangni pastga qaratgan holda suvni chiqarib tashlang.




Muzlab qolganlikni tekshirish

- Qoldiq suvni chiqarib tashlashda ishlatiladigan shlang tiqinini ochgandan so'ng suv chiqib ketmasa, drenaj tizimini tekshirib ko'ring.



- Mashinani yoqing, yuvish dasturini tanlang va **Boshlash/To'xtatish** tugmasini bosing.




- Jihoz ishlab turganida displey oynasida 'F F' ko'rinlsa, suv ta'minoti va drenaj tizimlarini tekshiring (ayrim rusumlarda muzlash haqida xabar beruvchi ogohlantirish funksiyasi yo'q).

Izoh

- Chayish paytida kir yuvish vositalari tortmasiga suv kelayotganligini hamda siqish paytida drenaj shlangi orqali suv chiqib ketayotganligini tekshiring.


Muzlaganda nima qilish kerak

- Barabanni bo'shating, keyin rezina qismigacha 50–60 °C issiqlikdagi suv bilan to'ldiring, eshigini yopib, 1–2 soat kuting.



⚠️ DIQQAT


- Drenaj shlangi egri shaklda o'rnatilgan bo'lsa, ichki qismi muzlab qolishi mumkin.
- Qopqoqni va qoldiq suvni chiqarib tashlashda ishlatiladigan shlang tiqinini ochib, suvni butunlay chiqarib yuboring.



Izoh


- Agar suv chiqib ketmasa, muz oxirigacha erimagan bo'ladi. Yana kuting.

- Barabandan suv batamom chiqarib yuborilgach, qoldiq suvni chiqarib tashlashda ishlatiladigan shlang tiqinini yoping, yuvish dasturini tanlang va **Boshlash/To'xtatish** tugmasini bosing.



Izoh

- Chayish paytida kir yuvish vositalari tortmasiga suv kelayotganligini hamda siqish paytida drenaj shlangi orqali suv chiqib ketayotganligini tekshiring.
- Suv ta'minotida muammo yuz bersa, quyidagi choralarni ko'ring.
 - Jo'mrakni yoping, qaynoq suvga botirilgan mato bilan jo'mrakni hamda jihozga suv kirish shlangining ikkala ulangan joyini isiting.
 - Suv kirish shlangini chiqarib olib, 50–60 °C dan pastroq haroratli iliq suvga botiring.



- Sizning kir yuvish mashinangiz muammolar boshlanishidanoq ularni aniqlash va tashxis qo'yish maqsadida avtomatik tarzda xatoni aniqlash tizimi bilan jihozlangan. Agar mashina to'g'ri ishlamasa yoki umuman ishlamasa, xizmat ko'rsatish markaziga qo'ng'iroq qilishdan oldin quyidagilarni tekshiring:

Muammolarga tashxis qo'yish

Alomatlari	Sababi	Yechimi
Qarsillagan va jaranglagan shovqin chiqmoqda	Baraban yoki nasos ichida tanga yoki to'g'nag'ich singari yot jismlar bo'lishi mumkin.	- Barcha cho'ntaklarni tekshirib ko'ring, ular bo'sh ekanligiga ishonch hosil qiling. Qisqichlar, gugurt, ruchka, tanga va kalit kabi jismlar kir yuvish mashinasi hamda kiyimlarni shikastlashi mumkin. - Sirtma, ilgak va bog'ichlarni yoping, boshqa kiyimlarga ilinib yoki chuvalashib qolmasin.
Taqqillagan shovqin chiqmoqda	Og'ir buyumlarni yuvishda taqqillagan shovqin chiqishi mumkin. Bu odatiy holat hisoblanadi.	Agar tovush chiqaversa, mashina muvozanatni yo'qotgan bo'lishi mumkin. Ishni to'xtatib, kirlarni qayta taqsimlang.
Tebranish shovqini chiqmoqda	Barcha tashish boltlari va ushlagich olib tashlanganmi?	Agar o'rnatish paytida olib tashlanmagan bolsa, tashish boltlarini olib tashlash uchun o'rnatish yo'riqnomasini ko'ring.
	Barcha oyoqchalari yerga mahkam joylashganmi?	Mashina tekis turganligiga amin bo'ling va kontrgaykalarni jihoz korpusiga qotiring.
Suv sizib chiqmoqda	Suv kirish shlanglari yoki drenaj shlangi jo'mrakka yoki mashinaga ulangan joyi bo'shab qolgan.	Shlang ulangan joylarini tekshiring va mahkamlab chiqing.
	Uydagi drenaj quvurlari tiqilib qolgan.	Drenaj quvurini ochib yuboring. Zarur bo'lsa, santexnik chaqiring.
Ko'pik ko'payib ketdi	Yuvish vositasi o'ta ko'p bo'lsa yoki mos kelmagan bo'lsa, kuchli ko'pik hosil bo'lishi va suv sizib chiqishi mumkin.	Ishlab chiqaruvchi tavsiya qilgan miqdordagi yuvish vositasi ishlatilsin.
Mashinaga suv kelmayapti yoki sekin kelmoqda	Shu joydagi suv ta'minoti yaxshi emas.	Uydagi boshqa jo'mrakni tekshirib ko'ring.
	Suv jo'mragi oxirigacha ochilmagan.	Jo'mrakni oxirigacha burab oching.
	Suv kirish shlang(lar)i bukilib qolgan.	Shlangni to'g'irlang.
	Suv kirish shlangi filtri tiqilib qolgan.	Suv kirish shlangi filtrini tekshiring.

Alomatlari	Sababi	Yechimi
Mashinadagi suv chiqib ketmayapti yoki sekin ketmoqda	Drenaj shlangi bukilgan yoki tiqilib qolgan.	• Drenaj shlangini tozalang va to'g'irlang.
	Drenaj filtri tiqilib qolgan.	• Drenaj filtrini tozalang.
Mashina ishga tushmayapti	Quvvat ta'minotiga ulanmagan yoki ulanish joyi bo'shab qolgan bo'lishi mumkin.	• Vilka devordagi rozetkaga mahkam joylashgan bo'lsin.
	Uydagi saqlagich kuygan, avtomatik uzgich ishlab ketgan yoki tok ta'minotida uzilish bo'lgan.	• Avtomatik uzgichni yoqing yoki saqlagichni almashtiring. Saqlagich quvvatini oshirmang. Tizim o'ta yuklangan bo'lsa, malakali elektrikka ta'mirlating.
	Suv jo'mragi ochilmagan.	• Suv jo'mragini oching.
Mashina barabani aylanmayapti	Eshigi zich yopilganligini tekshiring.	• Eshigini yopib, Boshlash/To'xtatish tugmasini bosing. Boshlash/To'xtatish tugmasini bosgach, mashina aylantirishni boshlaguncha biroz vaqt o'tishi mumkin. Aylantirish boshlanishidan oldin eshigi qulflanishi kerak. Yuklamni muvozanatga keltirish uchun 1-2 ta o'xshash buyum qo'shing. Baraban to'g'ri aylanishi uchun kirlarni qayta taqsimlab soling.
Eshik ochilmayapti	Xavfsizlik nuqtai nazaridan mashina ishga tushgach, eshigini ochib bo'lmaydi.	• "Eshik qulf" tasvirchasi yonganligini tekshiring. "Eshik qulf" tasvirchasi o'chgandan keyin eshikni ochishingiz mumkin.
Yuvish sikli vaqti kechikdi	Agar muvozanatsizlik aniqlansa yoki ko'pikni yo'qotish dasturi yoqilgan bo'lsa, yuvish vaqti cho'ziladi.	• Bu odatiy holat. Displayda ko'rsatiladigan qolgan vaqt taxminiydir. Asl vaqti boshqacha bo'lishi mumkin.
Mato yumshatgichi toshib ketdi	Yumshatgich ko'p ishlatib yuborilsa, toshib ketishi mumkin.	• Kerakli miqdor ishlatilganiga amin bo'lish uchun yumshatgich yo'l-yo'riqlariga amal qiling. Maksimal solish chizig'idan oshirib yubormang.
Yumshatgich erta taqsimlanmoqda	Yumshatgich ko'p ishlatib yuborilsa, vaqtdan oldinroq taqsimlanishi mumkin.	• Vosita ishlab chiqaruvchisining yo'l-yo'riqlariga amal qiling. • Kir yuvish vositalari tortmasini sekin yoping. Yuvish sikli mobaynida tortmani ochmang.
Tugmalar tegishli tarzda ishlamasligi mumkin	Eshik ochiq qolganda tugmalar ko'rinmaydi.	• Eshikni yoping va qaytadan bosing.
Quritishda muammo bor	Suv jo'mragini tekshiring.	• Haddan ortiq kirni yuklab yubormang. Mashina kirlardan kerakli miqdordagi suvni siqib chiqarib yuborayotganligini tekshiring. To'g'ri aylantirib quritish uchun kiyimlar juda kam. Bir nechta sochiq qo'shing. • Suv jo'mragini yoping.

Alomatlari	Sababi	Yechimi
Hid	Bu hidni kir yuvish mashinasiga biriktirilgan rezina keltirib chiqaryapti.	Bu yangi rezinadan chiqayotgan odatiy hid bo'lib, bir necha yuvish siklidan so'ng yo'qoladi.
	Rezina zichlagich doimiy ravishda tozalanmasa, zichlagich ichida to'plangan mog'or yoki begona moddalar hid paydo qilishi mumkin.	Rezina zichlagichni muntazam ravishda tozalang.
	Drenaj nasosi filtrida begona moddalar qolib ketishi oqibatida hid paydo bo'lishi mumkin.	Drenaj nasosi filtrini muntazam ravishda tozalang.
	Drenaj shlangi noto'g'ri o'rnatilgan va buning oqibatida suv kir yuvish mashinasiga qaytib oqib kirayotgan bo'lsa, hid paydo bo'lishi mumkin.	Drenaj shlangini o'rnatishda u bukilib va to'silib qolmaganligiga ishonch hosil qiling.
	Mashina ishga tushirilganda quritish funksiyasidan foydalanishda isitish moslamasiga yopishgan tola va boshqa zarralar oqibatida hid paydo bo'lishi mumkin.	Bu odatiy holat, shuning uchun mashinadan foydalanishda muammosiz davom etishingiz mumkin.
	Nam kiyimlarni issiq havo oqimida quritishda o'zgacha hid paydo bo'lishi mumkin (quritkichli rusumlardagina)	Hid qisqa vaqt ichida yo'qoladi.
Uy jihozingiz va smartfoningiz Wi-Fi tarmoqqa ulanmagan.	Siz ulanishga harakat qilayotgan Wi-Fi kalit so'zi noto'g'ri kiritilgan.	Smartfoningizga ulangan Wi-Fi tarmoqni toping va uni o'chirib yuboring, so'ng jihozingizni LG SmartThinQ ilovasida ro'yxatdan o'tkazing.
	Smartfoningizda uyali aloqa ma'lumotlarini uzatish funksiyasi yoqilgan.	Smartfoningizda uyali aloqa ma'lumotlarini uzatish funksiyasini o'chiring va Wi-Fi tarmoqdan foydalangan holda jihozingizni ro'yxatdan o'tkazing.
	Simsiz tarmoq nomi (SSID) xato o'rnatilgan.	Simsiz tarmoq nomi (SSID) inglizcha harflar va raqamlar birikmasidan iborat bo'lishi lozim. (Maxsus belgilarni ishlatmang)
	Router chastotasi 2.4 GGs emas.	Router faqat 2.4 GGs chastotada ishlaydi. Simsiz routerni 2.4 GGs chastotaga sozlang va jihozingizni simsiz routerga ulang. Router chastotasini tekshirish uchun internet xizmati ta'minotchisiga yoki routingizni ishlab chiqargan kompaniyaga murojaat qiling.
	Jihoz va simsiz router orasidagi masofa juda uzoq.	Agar jihoz va simsiz router orasidagi masofa juda uzoq bo'lsa, signal kuchsiz bo'lishi va ulanish to'g'ri o'rnatilmasligi mumkin. Routingizni jihozga yaqinroq joyga o'rnatish.

Xato haqidagi xabarlar


Alomatlari	Sababi	Yechimi
	Shu joydagi suv ta'minoti yetarlicha emas.	• Uydagi boshqa jo'mrakni tekshirib ko'ring.
	Suv jo'mraklari oxirigacha ochilmagan.	• Jo'mrakni oxirigacha burab oching.
	Suv kirish shlang(lar)i bukilib qolgan.	• Shlang(lar)ni to'g'irlang.
	Suv kirish shlanglari filtri tiqilib qolgan.	• Suv kirish shlangi filtrini tekshiring.
	Suv kirish shlangidagi suv sizib chiqsa, A chirog'i qizilga o'zgaradi.  Rusumga qarab farqlanishi mumkin.	• Suv sizib chiqishiga qarshi himoyaga ega suv kirish shlangidan foydalaning.
	O'ta kam buyum yuklangan.	• Yuklamni muvozanatga keltirish uchun 1-2 ta o'xshash buyum qo'shing.
	Kirni yuklashda muvozanat saqlanmagan.	• Yuklamni muvozanatga keltirish uchun 1-2 ta o'xshash buyum qo'shing.
	Bu jihozda muvozanat yo'qolganlikni aniqlash va tuzatish tizimi o'rnatilgan. Agar og'ir buyumlar (masalan, vanna gilamchasi, cho'milish xalati va boshqalar) jihozga yuklansa, ushbu tizim siqish siklini butunlay to'xtatib qo'yishi mumkin.	• Siqish jarayoni to'g'ri amalga oshishi uchun kirlarni qayta taqsimlab soling.
	Agar sikl tugagandan so'ng kirlar o'ta ho'l bo'lsa, muvozanatga keltirish uchun kichkina buyumlarni qo'shing va siqish siklini takrorlang.	• Siqish jarayoni to'g'ri amalga oshishi uchun kirlarni qayta taqsimlab soling.

Alomatlari	Sababi	Yechimi
 	Drenaj shlangi bukilib qolgan.	• Drenaj shlangini tozalang va to'g'irlang.
   	Drenaj filtri tiqilib qolgan.	• Drenaj filtrini tozalang.
  	Eshik ochiq qolmasin.	• Eshikni zich yoping. Agar dE , $dE1$, $dE2$, $dE4$ ekrandan ketmasa, xizmat ko'rsatish markaziga qo'ng'iroq qiling.
 	Eshik datchigi noto'g'ri ishlayapti.	
  	Boshqaruv xatosi.	• Quvvat shnuri vilkasini rozetkadan uzing va xizmat ko'rsatish markaziga qo'ng'iroq qiling.
  	Suv klapani buzilgani uchun suv toshib ketmoqda.	• Suv jo'mragini yoping. • Quvvat shnuri vilkasini rozetkadan uzing. • Xizmat ko'rsatish markaziga qo'ng'iroq qiling.
  	Suv sathi ko'rsatkichi noto'g'ri ishlamoqda.	• Suv jo'mragini yoping. • Quvvat shnuri vilkasini rozetkadan uzing. • Xizmat ko'rsatish markaziga qo'ng'iroq qiling.
  	Motorga yuklanish oshib ketgan.	• Motor sovishi uchun mashinani 30 daqiqa ishlatmay turing, keyin siklni qaytadan ishga tushiring.
  	Suv kirish/drenaj shlangi yoki drenaj nasosi muzlab qolganmi?	• Barabanga iliq suv quyib, drenaj shlangi va drenaj nasosini eriting. Issiq suvga sochiqni namlab, suv drenaj shlangiga o'rang.
  	Suv sizib chiqmoqda.	• Xizmat ko'rsatish markaziga qo'ng'iroq qiling.
 	Quritmayapti	• Xizmat ko'rsatish markaziga qo'ng'iroq qiling.

BU CHEKLANGAN KAFOLAT QUYIDAGILARNI QOPLAMAYDI:


- Jihozni yetkazib berish, olib ketish, o'rnatish yoki ta'mirlash uchun ketgan yo'l xarajatlari; jihozni ishlatish yuzasidan mijozga yo'l-yo'riq berish; saqlagichlarni tuzatish yoki almashtirish yoki simlar va quvurlarni o'zgartirish, vakolatsiz shaxs tomonidan ta'mirlash/o'rnatish oqibatlarini bartaraf qilish.
- Tok o'chgani va uzilgani yoki elektr ta'minoti maromida bo'lmagani uchun jihozning ishlamasligi.
- Suv quvurlari teshilgan yoki singanligi, muzlashi, drenaj tizimidagi tiqilib qolishlar, suv ta'minoti noto'g'ri yoki to'xtab qolgani yoki havo yetishmasligi tufayli yetkazilgan zarar.
- Jihozning foydalanuvchi qo'llanmasida berilgan yo'l-yo'riqlarga amal qilmagan holda yoki uni korroziv/yemiruvchi muhitda ishlatish oqibatida zararlanish.
- Noxush hodisa, parazit va zarurkunandalar, chaqmoq, shamol, yong'in, toshqin yoki boshqa tabiiy ofatlar ta'sirida jihozning shikastlanishi.
- Mo'ljallanganidan boshqa maqsadda qilingan ruxsatsiz o'zgartirish, jihoz noto'g'ri o'rnatilgan joydagi suv sizib chiqishi tufayli yetgan zarar.
- Barqaror bo'lmagan elektr toki, kuchlanish, quvurlarni payvandlash qoidalariga amal qilmaslik, mahsulotdan tijorat va sanoat maqsadlarida foydalanish yoki LG kompaniyasi tomonidan ma'qullanmagan qo'shimcha moslamalar, tarkibiy qismlar va yuvish vositalaridan foydalanish natijasida shikastlanish yoki nosozliklarning kelib chiqishi.
- Tashish va yetkazib berishda yetgan zarar, jumladan, jihoz sirtidagi timalish, ezilish, kesilish yoki boshqa zararlar. Ammo bu zararlar materiallar yoki ishlab chiqarishdagi kamchiliklar natijasida bo'lgan bo'lsa, bundan mustasno bo'ladi.
- Namoyish uchun mo'ljallangan, qutisiz, chegirmali yoki qayta tiklangan jihozga yetgan zarar yoki qismlarning yo'qligi.
- Asl seriya raqamlari o'chirilgan, o'zgartirilgan yoki yaxshi o'qib bo'lmaydigan mahsulotlar. Kafolatni tasdiqlash uchun rusum va seriya raqamlari, to'lov qog'ozining asl nusxasi kerak bo'ladi.
- Maishiy xizmat xarajatlari va qo'shimcha to'lovlarning oshishi.
- Jihoz odatdagicha va uydan boshqa joyda ishlatilganidagi ta'mirlashlar yoki mahsulotning foydalanuvchi qo'llanmasidagi yo'l-yo'riqlarga amal qilinmagan holdagi ta'mirlashlar.
- Jihozni ta'mirlash uchun uyingizdan olib ketish bilan bog'liq xarajatlar.
- Jihoz yetib bo'lmaydigan joyga o'rnatilgan bo'lsa yoki o'rnatish yo'riqnomalariga, jumladan, LG foydalanuvchi va o'rnatish qo'llanmalariga amal qilmasdan o'rnatilgan bo'lsa, uni olib tashlash va qayta o'rnatish.
- Noto'g'ri ishlatish, suiiste'mol qilish, noto'g'ri o'rnatish, ta'mirlash yoki xizmat ko'rsatish oqibatida zararning yuzaga kelishi. Noto'g'ri ta'mirlashga LG tomonidan tasdiqlanmagan yoki belgilanmagan ehtiyot qismlardan foydalanish kiradi.

Tashish boltlari yoki ushlagich olib tashlanmaganligi tufayli g'ayrioddiy tebranish yoki shovqin chiqmoqda.




Tashish boltlari va ushlagichni olib tashlang.

Zichlagich va eshik oynasidagi kirlanish (soch, tuk) tufayli suv sizib chiqmoqda.




Zichlagich va eshik oynasini tozalang.

Nasos filtri tiqilib qolganligi sababli suv chiqib ketmayapti.



Nasos filtrini tozalang.

Suv kirish klapani filtrlari tiqilgan yoki suv kirish shlanglari bukilib qolganligi sababli suv kelmayapti.




Suv kirish klapani filtrlari tozalang yoki suv kirish shlanglarini qayta o'rning.

Yuvish vositasi o'ta ko'p solinganligi sababli suv kelmayapti.




Kir yuvish vositalari tortmasini tozalang.

Yuvish nihoyasiga yetgandan so'ng kirlar issiq yoki iliq bo'lib qolmoqda, chunki suv kirish shlanglari almashib qolgan.




Suv shlanglarini qayta o'rning.

Jo'mrak ochilmaganligi uchun suv kelmayapti.




Suv jo'mragini oching.

Drenaj shlangi noto'g'ri o'rnatilganligi yoki tiqilib qolganligi sababli suv sizib chiqmoqda.




Drenaj shlangini qayta o'rning.

Suv kirish shlangi noto'g'ri o'rnatilganligi yoki boshqa ishlab chiqaruvchi shlangi ishlatilganligi sababli suv sizib chiqmoqda.




Suv kirish shlangini qayta o'rning.

Elektr toki shnuri bo'sh ulanganligi yoki rozetkada muammo tufayli tok kelmayapti.




Elektr toki shnurini qayta ulang yoki rozetkani almashtiring.

Jihozni yetkazib berish, olib ketish yoki o'rnatish yoki undan foydalanishga yo'l-yo'riq berish uchun kelib ketish. Jihozni olib tashlash va qayta o'rnatish




Kafolat faqat ishlab chiqarishdagi kamchiliklarni qoplaydi. Noto'g'ri o'rnatish natijasidagi xizmat ko'rsatish qoplanmaydi.

Agar barcha burama mixlar to'g'ri o'rnatilmagan bo'lsa, ortiqcha tebranishga sabab bo'lishi mumkin (faqat asosli rusumda).



Har burchakka 4 tadan burama mix o'rning (jami 16 ta).

Mashinaga suv to'ldirilayotganda suv urilishi shovqini chiqmoqda.



Uydagi suv klapani yoki suv jo'mragini burash orqali suv bosimini rostlang.

Mahsulot haqida ma'lumot		
Ta'minotchi savdo belgisi	LG	
Ta'minotchi rusum identifikatori	F2J7HG(P)(0~9)W/S	
Elektr energiya samaradorligi darajasi	B	
To'liq ish jarayonida yuvish, siqish va quritish uchun elektr energiya iste'moli	5,67	kWh/jarayon
Yuvish jarayonida faqat yuvish va siqish uchun elektr energiya iste'moli	1,02	kWh/jarayon
A (yuqori)dan G (quyi)gacha bo'lgan oraliqda kir yuvish samaradorligi darajasi	A	
60 °Cli standart yuvish jarayonida suv chiqarish samaradorligi	53	%
60 °Cli standart paxtani yuvish jarayonida erishiladigan maksimal aylantirish tezligi	1200	ayl./daq.
60 °Cli standart paxtani yuvish jarayonida jihoz yuvish sig'imi	7	kg
Standart " paxtani quritish" jarayonida jihoz quritish sig'imi	4	kg
To'liq ish jarayonida yuvish, siqish va quritish uchun suv sarfi	125	L
60 °Cli standart paxtani yuvish (va siqish) jarayonida faqat yuvish va siqish uchun suv iste'moli	80	L
Yuvish va quritish davomiyligi. To'liq ish jarayoni (60 °Cda paxtani yuvish va "paxtani quritish") uchun dastur davomiyligi	703	daq.
Iste'mol 200 martasiga teng doim quritgichdan foydalanadigan 4 kishilik xonadon uchun yillik (200 jarayon uchun) elektr energiya va suv sarfi.	1134 25000	kWh/yil L/yil
Iste'mol 200 martasiga teng quritgichdan umuman foydalanmaydigan 4 kishilik xonadon uchun yillik (200 jarayon uchun) elektr energiya va suv sarfi.	204 16000	kWh/yil L/yil
To'liq ish jarayoni (yuvish, siqish va quritish) uchun quvvat koeffitsiyenti, (cos φ)	0,94	
60 °Cli standart paxtani yuvish rejimi kir yuvish va siqish jarayonida shovqin darajasi	57	dBA
	73	dBA
	59	dBA

* Elektr energiya samaradorligi yorlig'i : Elektr energiya samaradorligi haqidagi ma'lumot yorlig'i ushbu jihozga yoki foydalanuvchi qo'llanmasi bilan birga taqdim qilingan qo'shimcha moslamalar to'plamiga birlashtirilgan.

* Ishlab chiqarilgan sana (oy/yil) mahsulot identifikatsion yorlig'ida ko'rsatilgan.

Izoh

Izoh

